

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI

Meyliyeva Gulorom Ruzimurotovna

**Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini
barkamol inson qilib tarbiyalash metodikasi**

5141600 – boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

dots. Rabbanaqulov X.

Bitiruv malakaviy ish boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2014-yil «___» maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (___ - sonli bayonnoma).

Kafedra mudiri:

dots. Shodiyev F.T.

Bitiruv malakaviy ishi YADAKning 2014-yil «___» iyundagi majlisida himoya qilindi va «___» ballga baholandi (___ - sonli bayonnoma).

YADAK raisi:

p.f.d., prof. Muslimov N.

A'zolari:

Samarqand - 2014

KIRISH

BITIRUV ISHINING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishgan kunlardan boshlab o'lkamizning turli jabhalarida, ayniqsa ta'lim-tarbiya sohasida katta o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Masalan, 1997-yil 29-avgust kuni "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi yuqoridagi aytilgan fikrimizning dalilidir.

Nega O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov va O'zbekiston Respublikasi hukumati ta'lim sohasini isloh qilishga alohida e'tibor qaratishdi? Chunki, Vatanimiz taqdiri uning kelajagi va ravnaqi bo'lgan bugungi yoshlar qo'lida. Shu munosabat bilan Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisning IX-sessiyasidagi so'zlagan nutqida: "Tarbiya sohasi islohoti bugungi eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi muammoga aylanmoqda" – deb ta'kidlagan edi. - Lo'nda qilib aytganda, bugungi kunda oldimizga qo'yilgan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi, taqdiri - bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz.

Shu bilan birga, hammamiz yana bir haqiqatni anglab yetmoqdamiz. Faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashab mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallash uchun fidoiylilik bilan kurashishi mumkin"¹

Shuning uchun, jamiyatimizga malakali kadrlarni yetkazib berish maqsadida Respublikamizning Vazirlar Mahkamasi tomonidan buyuk ma'naviyatimizni tiklash, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish asosida jahon andozalari va

¹ Karimov I. A. "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". - Toshkent, 1997-yil, O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutqi, 5-bet

ko'nikmalari asosida yuqori darajaga ko'tarishga katta ahamiyat berilmoqda. Masalan, maktab sohasida "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. 1996-97 o'quv yilidan boshlab maktablarning 1-sinflarida o'qish yangi alifbo asosida olib borilmoqda, litsey va kollejlar tashkil etilmoqda, yoshlarimiz chet ellarga borib o'qishmoqda, oliy o'quv yurtlariga test asosida o'qishga qabul qilinmoqda, "Mahalla", "Kamolot", "Sog'lom avlod uchun", "Nuroni", "Ulug'bek", "Umid" jamg'armalarining ta'lim-tarbiya sohasidagi ezgu ishlarni, o'sib kelayotgan avlodni nafaqat aqlan, balki jismonan sog'lom va ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashga qo'shayotgan hissalarini beqiyosdir.

Yuqorida qayd qilinganlarning hammasi O'zbekistonda hozirgi zamon yoshlari ta'lim va tarbiyasiga katta e'tibor berilayotgani ushbu kun nuqtai nazaridan nihoyatda dolzarb masalalardan ekanligi ko'rinib turibdi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Tadqiqotning maqsad va vazifalari mavzuning mohiyatidan kelib chiqadi. Asosiy maqsad - hozirgi yosh avlodni tarbiyalashda mustaqillikka erishgandan so'nggi jarayonni ko'zdan kechirish, bu boradagi yutuq va kamchiliklarini tashkil qilish masalaga milliy istiqloq mafkurasi nuqtai nazaridan yondashish va muayyan ilmiy xulosalarni bayon etish maqsad qilib qo'yilgan.

Buning uchun quyidagi ilmiy masalalarni yoritishni o'zimizga vazifa qilib oldik:

- mustaqillikkacha bo'lgan ta'lim-tarbiya jarayoni;
- mustaqillikka erishgandan so'nggi davr ichida ta'lim-tarbiya jarayonida, jumladan milliy tarbiya, milliy qadriyatlar va ularning qayta tiklanishi;
- yosh avlodni tarbiyalashda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning tutgan o'rni;
- O'zbekiston Respublikasining ravnaq topishida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning roli;
- yoshlar tarbiyasida tarbiyaning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari va uslublarini ko'rsatish;

- davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim-tarbiya ustuvorligi qaror topganligi;

- vatanparvarlik, ya'ni o'z vatani uchun iftixor tuyg'usining shakllanayotganligi;

- milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, boy madaniy-tarixiy an'alariga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat hozirgi yoshlar tarbiyasi kelgusida o'zbek ma'rifati va madaniyati uchun ahamiyatligi va h.

Bitiruv malakaviy ishida qo'llanilgan metod va usullar. Ushbu malakaviy bitiruv ishini yoritilishida quyidagi metod va usullardan foydalanildi:

A). Pedagogik kuzatuv metodi.

B). Qiyosiy va nazariy taqqoslash metodi.

S). Suhbat.

D). An'anaviy tavsif uslubi.

Ye). Mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish.

Bitiruv malakaviy ishining yozilishida asos bo'lgan material va manbalar. Ushbu tadqiqotning yozilishida quyidagi materiallardan foydalanildi:

A). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov asarlari;

B). Markaziy va mahalliy oynoma va ro'znomalar;

D). «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»;

E). Mavzuga oid olimlar, o'qituvchilar va tarbiyachilar tomonidan chop etilgan tadqiqot ishlari;

F). Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti hamda Samarqand shahrining axborot-resurs markazlaridagi mavjud ilmiy, nazariy, amaliy, badiiy va falsafiy adabiyotlar.

Bundan tashqari, mazkur tadqiqotning yoritilishida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi", "Davlat ta'lim standartlari" hamda ushbu mavzuga oid ilmiy-uslubiy maqola va adabiyotlar, o'quv qo'llanma va darsliklar, Samarqand shahridagi Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 43-sonli umumiy o'rta

ta'lim maktabining 4-sinfida olib borilgan tajribalar, ilg'or va tajribali o'qituvchilarning ko'rsatma va maslahatlaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, ushbu kunga qadar hozirgi yosh avlod tarbiyasida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” alohida bir mavzu sifatida o'rganilmagan. Shuning uchun ushbu mavzuni yoritilishida quyidagi ilmiy yangiliklarga erishildi:

- hozirgi yosh avlod tarbiyasida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning tutgan o'rni;
- yosh avlod tarbiyasida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”dan kelib chiqadigan vazifalar va h.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv ishining amaliy ahamiyati uning hozirgi kun uchun qanchalar yaroqli ekanligidadir. Bu jihatdan mazkur tadqiqotdagi ilmiy fikr-mulohazalar va xulosalar yosh avlod tarbiyasini yanada mukammallashtirish va takomillashtirish, bu boradagi maqsad va vazifalarni oydinlashtirish, respublikamizdagi barcha o'rta umumta'lim maktablari, oily o'quv yurtlarida olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaning usul va vositalarini o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishining muhokamasi. Ushbu bitiruv ishi Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti pedagogika fakulteti “Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrasida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Ushbu tadqiqot quyidagi bo'limlardan iborat: “Kirish”, to'rt bob, “Xulosa” va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Ishning qisqacha sharhi. Bitiruv ishi quyidagi tartibdagi qisqacha sharhga ega:

1. Bitiruv ishining “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, qo'llanilgan metodlar, ilmiy yangiligi, muhokamasi va tarkibiy tuzilishi, amaliy ahamiyati ko'rsatilgan.

I bob «Yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida pedagoglarning ushbu kundagi vazifalari» - deb nomlanib, unda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” mohiyatidan kelib chiqqan vazifalarni boshlang’ich sinf o’qituvchilari tomonidan hal etish masalalari o’rganilib chiqilgan.

II bob “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarini barkamol avlod qilib tarbiyalashning o’ziga xos muammolari” deb nomlangan bo’lib, ushbu bobda umumiy o’rta ta’lim maktablarining boshlang’ich sinf o’qituvchilari oldidagi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarini barkamol avlod qilib tarbiyalashning o’ziga xos muammolari o’rganilib chiqilgan va kerakli tavsiyalar berilgan.

Tadqiqotning uchinchi bobi “O’zbek modeli”ning o’sib kelayotgan yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta’siri haqida” deb nomlanib, unda “O’zbek modeli”ning jahonshumul obrusi, ahamiyati va uning bugungi kun yoshlari tarbiyasiga ko’rsatgan ijobiy ta’siri ochib berilgan.

Ishnig to’rtinchi bobi “Yoshlar ongiga milliy istiqlol g’oyasini singdirishda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning o’rni bo’lib, bu bobda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning yoshlar ongiga milliy istiqlol g’oyasini singdirish borasida amalga oshirilgan ulkan ishlar bayon etilgan.

Ishning “Xulosa” qismida tadqiqotda keltirilgan faktik ma’lumotlar va dalillar asosida ushbu mavzuda berilgan fikr va mulohazalar umumlashtirilgan.

Tadqiqotning so’ngida ushbu tadqiqot yuzasidan va ishning yozilishida foydalanilgan adabiyotlar alifbo tartibida keltirilgan.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Mazkur tadqiqotning predmeti sifatida boshlang’ich sinf o’quvchilarini “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida barkamol inson qilib tarbiyalash metodikasini ishlab chiqish maqsadida Samarqand shahridagi 43-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabining boshlang’ich sinf o’qituvchilarining fikrlari va mulohazalari zamon talablari asosida o’z ifodasini topgan.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti. Mazkur tadqiqotning obyekti sifatida Samarqand viloyat Samarqand shahridagi 43-umumiy o'rta ta'lim maktabining 4-sinfida o'tkazilgan ona tili va o'qish darslari jarayonidan foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishining farazi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini barkamol avlod qilib tarbiyalashga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarini barkamol avlod qilib tarbiyalash pirovard natijada ularni vatanparvar bo'lib yetishlari uchun imkon yaratiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida ushbu masalani amalga oshirilishi quyidagi vazifalarni bajarish orqali ta'minlanishi ko'zda tutiladi:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini barkamol avlod qilib tarbiyalashda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”dan foydalanish asosida ko'nikma va malakalar shakllantirilsa;

- boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mard, dovyurak, natijada vatanparvar qilib shakllanishlari uchun milliy istiqlol g'oyasini yoshlarning ongiga singdirishning shakl va yo'nalishlaridan foydalanishni o'rgatish usullari bo'yicha qo'llanma va tavsiyalar ishlab chiqilsa;

- kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z Ona-Vataniga bo'lgan sadoqat tuyg'usi malakalarini shakllantirish usullari aniqlansa;

- ona tili va o'qish darslarida Ona Vatanga sadoqat, ota-onaga hurmat, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat ramzlarini bilish va ularga itoat qilish, mehnatsevarlik tuyg'ularini shakllantiruvchi amaliy vositalar, jumladan darslarda o'zbek xalq ijodini o'rganish yuzasidan mustaqil ishlarni tashkil etish, darsdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlardan foydalanish malakalarini mustahkamlashda qo'llaniladigan vositalar ishlab chiqilsa va h.k.

Yuqorida bayon etilgan farazlar amalga oshirilsa quyidagi vazifalar amalga oshishi mumkin:

– boshlang'ich sinf o'quvchilarini barkamol avlod qilib tarbiyalashda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"dan foydalanish asosida ko'nikma va malakalar shakllantirish;

– boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mard, dovyurak, natijada vatanparvar qilib shakllanishlari uchun milliy istiqlol g'oyasini yoshlarning ongiga singdirishning shakl va yo'nalishlaridan foydalanishni o'rgatish usullari bo'yicha qo'llanma va tavsiyalar ishlab chiqish;

– kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z Ona-Vataniga bo'lgan sadoqat tuyg'usi malakalarini shakllantirish usullarini aniqlash;

– ona tili va o'qish darslarida Ona Vatanga sadoqat, ota-onaga hurmat, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat ramzlarini bilish va ularga itoat qilish, mehnatsevarlik tuyg'ularini shakllantiruvchi amaliy vositalar, jumladan darslarda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni o'rganish yuzasidan mustaqil ishlarni tashkil etish, darsdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlardan foydalanish malakalarini mustahkamlashda qo'llaniladigan vositalar ishlab chiqish;

– mavzuga oid tadbirlar, mashg'ulotlar, ishlanmalarni yaratish, olingan natijalarni umumlashtirish va h.k.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asoslarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning ta'lim-tarbiyaga oid asarlari va ularda bildirilgan fikrlari; Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasining ta'lim-tarbiya to'g'risidagi Qonun va Qarorlari; «Ta'lim to'g'risidagi» Qonun; «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»; Uzluksiz boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi; «Boshlang'ich ta'lim to'g'risidagi talablar»; DTS; «Maktab ta'limi to'g'risidagi Nizom va Konsepsiya» tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining bazasi. Tadqiqotning bazasi sifatida Samarqand shahridagi Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 43-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining 4-sinfi tayanch baza vazifasini o'tadi.

Malakaviy bitiruv ishning tarkibiy tuzilishi. Mazkur malakaviy bitiruv ishi quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan:

A). “Kirish” qismi. Ushbu qismda mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, tadqiqot predmeti, tadqiqot obyekti, tadqiqot farazi, qo’llanilgan metod va usullar, metodologik asoslari, tadqiqot bazasi, foydalangan materiallar, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati, mundarijasi, tarkibiy tuzilishi, tadqiqotning muhokamasi bayon etilgan.

B). I bob «Yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida pedagoglarning ushbu kundagi vazifalari» - deb nomlanib, unda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” mohiyatidan kelib chiqqan vazifalarni boshlang’ich sinf o’qituvchilari tomonidan hal etish masalalari o’rganilib chiqilgan.

D). II bob “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarini barkamol avlod qilib tarbiyalashning o’ziga xos muammolari” deb nomlangan bo’lib, ushbu bobda umumiy o’rta ta’lim maktablarining boshlang’ich sinf o’qituvchilari oldidagi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarini barkamol avlod qilib tarbiyalashning o’ziga xos muammolari o’rganilib chiqilgan va kerakli tavsiyalar berilgan.

Ye). Tadqiqotning uchinchi bobi “O’zbek modeli”ning o’sib kelayotgan yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta’siri haqida” deb nomlanib, unda “O’zbek modeli”ning jahonshumul obrusi, ahamiyati va uning bugungi kun yoshlari tarbiyasiga ko’rsatgan ijobiy ta’siri ochib berilgan.

F). Ishning to’rtinchi bobi “Yoshlar ongiga milliy istiqlol g’oyasini singdirishda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning o’rni bo’lib, bu bobda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning yoshlar ongiga milliy istiqlol g’oyasini singdirish borasida amalga oshirilgan ulkan ishlar bayon etilgan.

G). Ishning «Xulosa» qismida to’rtta bobda bayon etilgan nazariy va amaliy fikrlarga umumiy xulosalar o’z aksini topgan.

H). Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati alfavit tartibida berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining mundarijasi. Ushbu bitiruv malakaviy ishining mundarijasi quyidagi qismlardan iborat:

Kiris.....	3
I bob. Yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning o’rni.....	12
1-§. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarini barkamol inson qilib tarbiyalashda pedagoglarning ushbu kundagi vazifalari.....	12
2-§. Boshlang’ich sinf o’quvchilarini “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida barkamol inson qilib tarbiyalashning asosiy maqsadi.....	14
II bob. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarini barkamol avlod qilib tarbiyalashning o’ziga xos muammolari.....	17
1-§. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarini barkamol avlod qilib tarbiyalashning ba’zi bir jihatlari.....	17
2-§. O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi qonuni.....	20
3-§. O’zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”.....	22
III bob. “O’zbek modeli”ning o’sib kelayotgan yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta’siri haqida.....	26
1-§. “O’zbek modeli”ning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati haqida.....	26
2-§. Uzlüksiz ta’limni isloh qilish.....	30
IV bob. Yoshlar ongiga milliy istiqlol g’oyasini singdirishda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning roli.....	35
1-§. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida yoshlar ongiga milliy g’oyani singdirish yo’llari.....	35
2-§. Ma’naviy islohotlar qamrovining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati.....	44
Xulosa.....	51
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	55

I BOB

Yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning o’rni

1-§. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarini barkamol inson qilib tarbiyalashda pedagoglarning ushbu kundagi vazifalari

Yosh avlod tarbiyasi komil insonni tarbiyalash tushunchalari bugun paydo bo’lgan emas. Bu tushunchalar Markaziy Osiyo xalqlarining kitobi “Avesto”da ham muhim o’rin egallagan. Keyinchalik, islom falsafasi tasavvufida yoshlarga katta ahamiyat beriladi. Uning asosiy xususiyatlari Ibn al-Arabiyning “Fasius al-Hikmat”, Aziz Nasafiyning “Kitob ul-insonil komil bi ma’rifat il vofir” asarlarida bayon etilgan. “Biz,- deydi yurtboshimiz, - komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi, deb e’lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o’zgalarga ibrat bo’ladigan bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz”².

Mustqillikni mustahkamlash tabiiy ravishda kadrlar masalasida ya’ni siyosat yuritishni, bilimdon mutaxassislar tayyorlashning yangi tizimini yaratishni taqozo etadi.

I.A.Karimov mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq uzoqni ko’zlagan holda kadrlar siyosatini ustuvor vazifalar darajasiga ko’tardi. Mamlakatimizda yangi o’quv dasturlarining yaratilishiga, xalq ta’limi mavqeini ko’tarilishiga katta e’tibor berdi. Jumladan, 1992-yil 28-fevral kuni chiqarilgan farmonga asosan viloyat pedagogika institutlariga universitet maqomi berildi, test-sinovlari joriy qilindi. Oliy ta’lim hozirgi zamon sharoitida yanada takomillashtirildi. Bakalavrlik darajasini olish uchun to’rt yil, magistrlik darajasini olish uchun esa ikki yil talab

² Karimov I. A. «Yuksak ma’naviyat - jamiyat taraqqiyotining asosi». - T.: «O’zbekiston», 1998-y., 56 b.

qilinadi. Undan keyin aspirantura va doktorantura hamda qo'shimcha kasbiy qayta ta'lim tayyorlash va malaka oshirishga katta e'tibor beriladigan bo'ldi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini tashkil etish davr talabiga va jahon andozalariga to'g'ri keladigan dastur asosida amalga oshirildi. 1997-yil 29-avgust kuni Oliy Majlisining II sessiyasida "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Bu dasturlar uch bosqichni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqich 1997-yildan 2001- yilgacha, ikkinchi bosqich 2001-2005-yillar va nihoyat uchinchi bosqich 2005 va undan keying yillar.

Milliy dasturni hayotga joriy etib, yuksak malakali mutaxassislar tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurishi akademiyasi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi, Toshkent Islom universiteti, jami 60 dan ortiq o'quv yurti ishlab turibdi. Shuningdek, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimida respublikamizda 23 ta institut, 16 ta fakultet, 4 ta markaz, 14 ta malaka oshirish kurslari va institutlar, tayanch korxonalar qoshidagi qisqa muddatli malaka oshirish bo'limlari ishlamoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yunesko qo'mitasi 2001-yilning yakunlari asosida butun dunyoda e'tiborga molik deb O'zbekistonning ta'lim-tarbiya, ya'ni maorif sohasida amalga tadbiq etilayotgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni tan olib, eng yuqori mukofot - Yuneskoning sovrinini topshirdi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" jahon andozalari talablariga to'la javob beradi. Islom Karimov 2002-yilning birinchi yarmida O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish yuzasidan ustuvor vazifalar va topshiriqlarini bajarishi hamda dolzarb muammolarni hal etilishi to'g'risidagi ma'ruzasida ta'kidlanganidek: "Gap "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni hayotga joriy etish haqida, shu dastur orqali yuksak zamonaviy talablariga javob beradigan, yangicha fikrlaydigan, mamlakatimizning kelajak

taqdirini ishonib topshirish mumkin bo'lgan yosh kadrlarni tayyorlash haqida bormoqda”³.

2-§. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida barkamol inson qilib tarbiyalashning asosiy maqsadi

Yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashning asosiy maqsadi jamiyat manfaatlari uchun o'zini fido qiladigan fidoyi shaxsni yetishtirishdir. Musulmon xalqlari adabiyoti tarixida barkamol insonni tarbiyalash muhim o'rin egallagan. Bu masalaga bag'ishlangan dasturiy amallar, pandnomalar nihoyatda ko'p. Masalan, Kaykovusning “Qobusnoma”, Shayx Sa'diyning “Bo'ston”, va “Guliston” asarlari, “Temur tuzuklari”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul qulub”, Koshifiyning “Axloqi muhsiniy” kabi kitoblari shular jumlasidandir.

Porloq kelajagimiz, mamlakatimizning yanada kuchli, har tomonlama rivojlangan davlatlar qatoriga kirishi ham yoshlarimizning hozirgi kundagi tarbiyasiga bog'liqdir. Yosh avlodni milliy ruhda, sharqona odob-axloq fazilatlarini asosida tarbiyalash ta'lim-tarbiya oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Har bir oilada ota-onalarimiz tomonidan qoldirilgan ta'lim-tarbiyaga oid ijobiy pand-nasihatlar, odob-axloqni farzandlar ongiga singdirilsa, bu kelajakda, albatta, ijobiy samara beradi. Xalqimiz orasida shunday naql bor: “Qush uyasid ko'rganini qiladi”. Bu kabi maqollar farzandlar tarbiyasida oiladagi muhitning o'rnini juda kattaligidan dalolat beradi.

Bizga ma'lumki, hozirgi vaqtda ko'pgina yoshlar salbiy muhitga tushib qolib, ko'plab jinoyatlarni sodir qilmoqdalar. Demak, oiladagi farzandlarimizni har daqiqada nazoratsiz qoldirmasligimiz zarur.

³ Karimov I. A. “Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori”. - Toshkent, 1997-yil, O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutqi, 35-bet

Oilada bola tug'iladi, ota-ona unga chiroyli ism qo'yadi, uni mehr bilan parvarish qiladi, kelajakda o'z xalqiga, vataniga sadoqatli inson bo'lsin deb, butun hayotini bolaga bag'ishlaydi.

Har bir oilada farzand o'z ota-onasini, kattalarni hurmat qilmasa, bunga ota-onalarning o'zi aybdor. Bolani yoshligida haddan tashqari erkalatish, bola talab qilgan hamma talablarni bajarishlari natijasida oilada bolani dangasalik ruhida, atrofdagi kishilarga mehrsiz bo'lib o'lishiga olib keladi.

“Avval o'yla, keyin so'yla”, “Nimani eksang shuni o'rasan” maqollariga rioya qilib holda, tarbiyachi, o'qituvchi va ota-onalarga qo'yidagi maslahatlarni tavsiya qilish mumkin:

a) farzandlar qalbiga yoshligidan boshlab O'zbek xalqining urf-odatlarini, an'analari singdirish lozim;

b) ona qiziga, ota o'g'liga namunali bo'lishi lozim;

v) oilada ona o'rni, ayol o'rni bo'lishi lozim. Chunki qiz bola tarbiyasida ona muhim rol o'ynaydi;

g) o'g'ilning jasoratli, mard yigit bo'lib tarbiyalanishi otaga bog'liq, ota namuna bo'lishi lozim;

d) farzandlarni yoshligidan boshlab mehribonlikka, kattalarni hurmat qilishga, chiroyli, odobli tilda gapirishga o'rgatish, bu ota-onaning ham burchi, ham farzidir va h.

Demak, o'zbek oilalarida xalqimiz tomonidan yaratilgan xalq pedagogikasi namunalari farzand tarbiyasida asosiy mezon hisoblanadi.

Xalqimizning eng ajoyib milliy an'analarni oilada farzandlarni tarbiyalashda har tomonlama hayot maktabi bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilarga o'zbek xalq pedagogikasining insonparvar ruhini singdirishda maktab darsliklari, odobnoma darsliklari muhim rol o'ynaydi. Ular xalqimizning uzoq o'tmishdagi boy va madaniy me'rosini yoshlarga yetkazishda juda muhimdir.

Prezidentimiz ham yoshlar tarbiyasiga, ularning kelgusida komil inson bo'lib yetishishiga katta e'tibor berib kelmoqda. “Bu sohadagi ishlarimizning

pirovard maqsadi iymon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, ya'ni mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimiz tafakkuriga tayanib yashaydigan barkamol shaxs - komil insonni tarbiyalashdan iborat”⁴ - deb ta'kidlaydi yurtboshimiz.

Milliy g'oyamizning maqsadlaridan biri - har tomonlama komil bo'lgan insonni tarbiyalashdan iborat. Bu esa komillik, mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi ko'plab asl insoniy xislat va fazilatlarning majmuidir.

⁴ Karimov I. A. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2008-y., 48 b.

II BOB

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarini barkamol avlod qilib tarbiyalashning o’ziga xos muammolari

1-§. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarini barkamol avlod qilib tarbiyalashning ba’zi bir jihatlari

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” “Ta’lim to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonuni asosida va uning qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo’lib, milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimining jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlash hamda umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo’ljalni to’g’ri ola bilish mahoratiga ega bo’lgan, istiqloq tufayli erishgan va uning vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarni yangi avlodini shakllantirishga yo’naltirilganligidir.

Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro’yobga chiqarishni, har tomonlama turmushga moslashgan, jamiyat, davlat va oila oldida o’z javobgarligini his etadigan fuqorolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Ushbu dastur fuqorolarga ta’lim-tarbiya berish, kasb-hunar o’rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi, hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta’minlashga qaratilgan.

“Ta’lim to’g’risida”gi qonun hujjatlari ushbu dastur hamda boshqa qonun hujjatlari uchun dasturiy bo’lib xizmat qilmoqda.

Qoraqalpog’iston Respublikasida ta’lim sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog’iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O’zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida “Ta’lim to’g’risida”gi qonun hujjatlaridagidan o’zgacha qoidalar belgilangan bo’lsa, xalqaro shartnoma qoidalarida qo’llaniladi.

“Ta’lim to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e’lon qilingan.

Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvarligi, demokratik harakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodlilarni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.
- jinsi, tili, yoshi, irqi, millati, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishini, xizmat turi, ijtimoiy mavqei, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qa'tiy nazar, har kimga bilim olishga teng huquqlar kafolatlanishi.

Bilim olish huquqi:

- davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish;
- ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta'lim olishni tashkil etish;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o'qitish, shuningdek ta'lim muassasalarida shartnoma asosida to'lov evaziga kasb-hunar o'rgatish;
- barcha turdagi ta'lim muassasalarining bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o'quv yurtlariga kirishda teng huquqlarga ega bo'lish;
- oilada yoki o'zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqorolarga akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim muassasalarida ensternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi;

Boshqa davlatlarning fuqorolari O'zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga ega.

Respublikada istiqomat qilayotgan fuqoroligi bo'lmagan shaxslar bilim olishda O'zbekiston Respublikasi fuqorolari bilan teng huquqlarga ega.

Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Pedagog xodimlarni oliy o'quv yurtlariga ishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan "Nizom"ga muvofiq tanlov asosida amalga oshiriladi.

Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish sud hukmiga asosan ma'n etilgan shaxslarning ta'lim muassasalarida bu faoliyat bilan shug'ullanishga yo'l qo'yilmaydi.

Ta'lim muassasasini akkredatatsiyalash vakolatlari davlat organi tomonidan attestatsiyaga asosan amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasasi yuridik shaxs bo'lib, qonun hujjatlarida berilgan tartibda barpo etiladi. Nodavlat ta'lim muassasasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda davlat akkredetatsiyasidan o'tgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquqlari va ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

Ta'lim muassasasi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqarilgan ustav asosida faoliyat ko'rsatadi.

Ta'lim muassasasi attestatsiya natijalariga binoan davlat akkredetatsiya natijalaridan mahrum etilishi mumkin.

Ta'lim muassasalari o'quv tarbiya majmualariga hamda o'quv ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari va uyushmalariga birlashishga haqli.

Ta'lim muassasalari ustavida belgilangan vazifalarga muvofiq pulli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari bilan shug'ullanishga haqli.

Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

Ta'lim muassasalarida ta'lim berish tilidan foydalanish tartibi "Davlat tili haqida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;
- ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy pedagogik muassasalar;
- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek ularga qarashli korxonalar, muassasalar, tashkilotlar;

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabga o'qishga tayyorlaydigan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi.

Umumiy o'rta ta'lim bosqichlari quyidagicha:

Boshlang'ich ta'lim (I-IV sinf), umumiy o'rta ta'lim (I-IX sinf). Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir.

Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yetti yoshdan qabul qilinadi.

Umumiy o'rta ta'lim bilimlarining zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarni rivojlantiradi, dastlabki tarzda yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini olish maqsadida har kim umumiy o'rta ta'lim asosida akademik litseyida yoki kasb-hunar kollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

2-§. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni

O'zbekiston respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni 1997-yil 29-avgust kuni qabul qilingan.

Ushbu Qonun 5 bo'lim va 34 moddadan iborat.

I bo'lim: «Umumiy qoidalar» (8 moddadan iborat – 1-8).

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi.

2-modda. “Ta’lim to’g’risida”gi qonun hujjatlari.

3-modda. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari.

4-modda. Bilim olish huquqi.

5-modda. Pedagogik soha bilan shug’ullanish huquqi.

6-modda. Ta’lim muassasasining huquqiy maqomi.

7-modda. Davlat ta’lim standartlari.

8-modda. Ta’lim berish tili.

II bo'lim: «Ta’lim tizimi va turlari» (11 moddadan iborat – 9-19).

9-modda. Ta’lim tizimi.

10-modda. Ta’lim turlari.

11-modda. Maktabgacha ta’lim.

12-modda. Umumiy o’rta ta’lim.

13-modda. O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi.

14-modda. Oliy ta’lim.

15-modda. Oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim.

16-modda. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.

17-modda. Maktabdan tashqari ta’lim.

18-modda. Oiladagi ta’lim va mustaqil ravishda ta’lim olish.

19-modda. Ta’lim to’g’risidagi hujjatlar.

III bo'lim: «Ta’lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoyalash» (5 moddadan iborat – 20-24).

20-modda. Ta’lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish.

21-modda. Ta’lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish.

22-modda. Yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o’qitish.

23-modda. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish.

24-modda. Ijtimoiy yordamga va tiklanishga muhtoj bo'lgan shaxslar uchun o'quv-tarbiya muassasalari.

VI bo'lim: «Ta'lim tizimini boshqarish» (5 moddadan iborat – 25-29).

25-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlari.

26-modda. Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining huquq doirasi.

27-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta'lim sohasidagi vakolatlari.

28-modda. Ta'lim muassasasini boshqarish.

29-modda. Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari bilan nodavlat ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar.

V bo'lim: «Yakunlovchi qoidalar» (5 moddadan iborat – 30-34).

30-modda. Ota-onalar va qonuniy vakillarning vazifalari.

31-modda. Ta'limni moliyalash.

32-modda. Ta'limni rivojlantirish fondlari.

33-modda. Xalqaro hamkorlik.

34-modda. “Ta'lim to'g'risida”gi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

«Ta'lim to'g'risida»gi qonunning maqsadi.

Ushbu Qonun fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan.

3-§. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”

O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» 1997-yil 29-avgust kuni qabul qilingan.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» «Umumiy qoidalar» va quyidagi 5 bo'limdan iborat:

I bo'lim: «Muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillari».

- 1.1. Rivojlanishning erishilgan darajasi.
- 1.2. Kamchiliklar va muammolar.
- 1.3. Isloh qilish omillari.

II bo'lim: «Milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro'yobga chiqarish bosqichlari».

- 2.1. Dasturning maqsad va vazifalari.
- 2.2. Dasturning ro'yobga chiqarish bosqichlari.

III bo'lim: «Kadrlar tayyorlashning milliy modeli».

- 3.1. Shaxs.
- 3.2. Davlat va jamiyat.
- 3.3. Uzlüksiz ta'lim.
 - 3.3.1. Uzlüksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari.
 - 3.3.2. Uzlüksiz ta'lim tizimi va turlari:
 - Maktabgacha ta'lim.
 - Umumiy o'rta ta'lim.
 - O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi.
 - Oliy ta'lim.
 - Oliy va o'rta maxsus ta'lim.
 - Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.
 - Maktabdan tashqari ta'lim.
- 3.4. Kadrlar tayyorlash tizimida fan.
- 3.5. Kadrlar tayyorlash tizimida ishlab chiqarish.

IV bo'lim: «Kadrlar tayyorlash milliy tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari».

- 4.1. Ta'limning uzluksizligini ta'minlash.

4.2. Pedagog va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

4.3. Ta'lim jarayonini mazmunini isloh qilish.

4.4. Ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar.

4.5. Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar.

4.6. Ta'lim tizimini boshqarish.

4.7. Kasb-hunar ta'limi sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirish.

4.8. Ta'lim tizimini moliyalash.

4.9. Moddiy-texnika ta'minoti.

4.10. Ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish.

4.11. Ta'lim xizmati ko'rsatish bozorini rivojlantirish.

4.12. Ta'lim sohasida ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash hamda bu sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.

4.13. Fan bilan ta'lim jarayoni aloqalarini rivojlantirish.

4.14. Ishlab chiqarish va ta'lim tizimi integrasiyalashuvini rivojlantirish.

4.15. Ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi xalqaro hamkorlik.

V bo'lim: «Milliy dasturni ro'yobga chiqarishga doir tashkiliy chora-tadbirlar».

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning maqsadi.

Mazkur dasturning maqsadi: *«Ta'lim soh-sini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan xalos etish, rivojlangan davlatlar darajasida yuksak ma'naviy-axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir».*

Kadrlar tayyorlash milliy modeli

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'yekti va obykti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularning amalga oshiruvchisi.

2. Davlat va jamiyat – ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari.

3. Uzlaksiz ta’lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo’lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzulmasi va uning faoliyat ko’rsatish muhitini o’z ichiga oladi.

4. Fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi.

5. Ishlab chiqarish – kadrlarga bo’lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo’yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatdan ta’minlash jarayonining qatnashchisi.

Milliy dasturni ro’yobga chiqarishga doir tashkiliy chora-tadbirlar

Milliy dasturni ro’yobga chiqarishga doir tashkiliy chora-tadbirlarga quyidagilar kiradi:

1. Milliy dasturni bajarish yuzasidan davlat va jamoat institutlarining faoliyati hamda vazifalarini belgilash.

2. Milliy dasturni aniq yo’nalishlarini ishlab chiqish jarayoniga malakali chet el ekspertlarini jalb etish.

3. Milliy dasturni bajarishda davlat va nodavlat tashkilotlar faoliyati muvofiqlashtirilib, xalqaro tashkilotlar qatnashuvini tashkil etish.

4. Kadrlar tayyorlash milliy modelini ro’yobga chiqarilishini ta’minlanishi uchun seminarlar va anjumanlar o’tkazish orqali dasturning mohiyatini tushuntirish.

5. Milliy dasturning monitoringi va bajarilishini ekspertiza qilish asosida unga tuzatishlar kiritish.

6. Milliy dasturning maqsad va vazifalarini amalga oshirish jarayonida jamaot tashkilotlari va markazlari, respublika aholisining ishtirokini ta’minlash.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar bo'yicha ishlash huquqiga beradigan hamda bunday ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi.

Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi.

Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning yuqori malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgandir. Oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida olinishi mumkin.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Bolalar va o'smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat va nodavlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy, estetik, ilmiy, texnikaviy va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

III BOB

“O‘zbek modeli”ning o‘zib kelayotgan yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta’siri haqida

1-§. “O‘zbek modeli”ning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati

Milliy dasturning maqsadi ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga, yuksak ma’naviy, axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- Shaxs - kadrlar tayyorlash tizimining sub’yekti va ob’yekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchisi;

- Davlat va jamiyat – ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari.

- Uzluksiz ta’lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzulmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi.

- Fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi.

- Ishlab chiqarish – kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatdan ta’minlash jarayonining qatnashchisi.

Davlat va jamiyat uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha uchun ochiq bo‘lishini va hayot o‘zgarishlariga moslashuvchanligini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan inson huquqlari, ta’lim, bola huquqi sohasidagi shartnomalar va konvensiyalar bajarilishi kadrlar tayyorlash sohasidagi

jahon ilg'or tajribasini hisobga olib, uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash milliy tizimining barcha jihatlariga daxldor bo'lib, uning rivojlanishi omillaridan biridir.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosatini, insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs - fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo'yicha mehnat qilish huquqi ro'yobga chiqariladi.

“Ta'lim to'g'risida”gi umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi standartlari orqali sifatli ta'lim olish, shuningdek, ta'lim va kasb-hunar jihatdan tayyorgarlikning shakllari va turlarini tanlashni, uzluksiz malaka oshirib borish, zarurat taqozo etsa, tegishli qayta tayyorgarlikdan o'tish huquqini va keng imkoniyatlarini nazarda tutadi.

Ta'lim xizmatlarining iste'molchisi shaxsga davlat ta'lim olish va kasb-hunar tayyorgarligi ko'rish kafolatlanadi. Ta'lim olish jarayonida shaxs davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

Shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va o'z bilimi va tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi.

Davlat va jamiyat

Davlat va jamiyat kadrlar tayyorlash tizimini amal qilishi va rivojlanishining kafillari, yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarining faoliyatini uyg'unlashtiruvchi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Davlat va jamiyat quyidagilarga, chunonchi:

- fuqorolarning bilim olish, kasb tanlash va o'z malakasini oshirish huquqlarini ro'yobga chiqarishiga;
- majburiy umumiy o'rta ta'lim hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish yo'nalishini tanlash huquqi asosida majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishga;

- davlat grantlari yoki pullik shartnomalar asosida oily ta'lim va oily o'quv yurtlaridan keyingi ta'lim olish huquqiga;
- davlat ta'lim muassasalarini mablag' bilan ta'minlashga;
- ta'lim oluvchilarning o'qishi, turmushi va dam olish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalarni hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga;
- sog'lig'i va rivojlanishida nuqsoni bo'lmagan shaxslarni ta'lim olishiga kafolat beradilar.

Uzluksiz ta'lim

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosidir. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsni shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari.

Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ta'limning ustuvorligi - uning rivojlanishining birinchi ahamiyatiga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi;
- ta'limning demokratlashuvi - ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o'tilishi;
- ta'limning insonparvarlashuvi - inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi;

- ta'limning ijtimoiylashuvi - ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;

- ta'limning milliy yo'naltirilganligi, ta'limning milliy tarixi, xalq an'analari va urf-odatlar bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotining o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;

- ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;

- iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

2-§. Uzlüksiz ta'limni isloh qilish

Uzlüksiz ta'lim to'g'risidagi islohotlar quyidagilarni nazarda tutadi:

- ta'lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o'qituvchi, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish;

- davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining har xil turlarini rivojlantirish;

- ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyalarning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosida zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim va kasb hunar ta'limi dasturlarini tubdan o'zgartirish;

- majburiy umumiy o'rta ta'limdan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga o'tishini ta'minlash;

- maxsus, kasb-hunar ta'limining markazlari sifatida fan va ishlab chiqarish integratsiyalashgan yangi tipdagi o'quv muassasalarini vujudga keltirish;

- lg'or texnologiyalarni keng o'zlashtirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, chet el investitsiyalari ko'lamlarining kengayishi, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni rivojlantirish bilan bog'liq yangi kasb-hunar va mutaxassislar bo'yicha kadrlar, shu jumladan boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

- ta'lim olishda, shuningdek bolalar va yoshlarni ma'naviy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqib, ularni amalga oshirish;

- ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatida xolis baho berish tizimini yaratish va joriy etish;

- ta'lim tizimini moliyaviy, moddiy texnika bilan va boshqa tarzdagi resurslar bilan ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;

- ta'lim va ilm-fan bilan bog'liq chet el hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish;

- ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik, sanitariya-gigiyena ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi;

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keying ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim;

Kadrlar tayyorlash modelining mustaqil ravishdagi to'qqiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini joriy etishdan iboratdir. Bu esa, umumiy ta'lim dasturlaridan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlariga izchil o'tilishini ta'minlaydi.

Umumiy ta'lim dasturlari: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim (I-IV sinf), umumiy o'rta ta'lim (I-IX sinf), o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini qamrab oladi.

Kasb-hunar ta'limi dasturlari o'rta maxsus, kasb hunar ta'limi, oiliy ta'lim va oiliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni qamrab oladi.

Maktabgacha ta'lim bola sog'lom, har tomonlama kamol topib, shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Maktabgacha tarbiyani rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

- malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;
- maktabgacha ta'limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;
- bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta'minlash;
- zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy qadriyatlari asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha ta'lim muassasalarining har xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha masalalari bo'yicha malakali konsultatsiya xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish;
- maktabgacha tarbiya va sog'lomlashtirish muassasalari tarmog'ini qo'llab quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

To'qqiz yillik (I-IX) o'qishdan iborat umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Ta'limning bu turi boshlang'ich ta'limni (I-IV) qamrab oladi, hamda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim

o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umum-madaniy bilimlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlashni shakllantiradi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turdir. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim yo'nalishi, akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Akademik litsey davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradi. Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini o'zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslangan, hamda ikki (bakalvriyat va magistratura) bosqichiga ega.

Oliy o'quv yurtidan keying ta'lim jamiyatning oliy malakli ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga, shaxsning ijodiy ta'lim kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratilgan. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratilgan. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalaridagi o'qish natijalariga qaratilganiga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikat topshiriladi.

Maktabdan tashqari ta'lim bolalar va o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab ehtiyojlarni qondirish, ularning bo'sh vaqtini va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, sport va boshqa

yo'nalishlarda maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etadilar.

IV BOB

Yoshlar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning o'rni

1-§. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida yoshlar ongiga milliy g'oyani singdirish yo'llari

G'oyaviy tarbiya tushunchasi milliy istiqlol g'oyasi O'zbekiston xalqining tub manfaatlarini, asriy orzu-umidlari, ezgu-niyatlari, buyuk maqsadlarini ifoda etib, xalqning o'z maqsad-muddaolariga erishish uchun ma'naviy ruhiy, kuch-quvvat bo'ladigan poydevordir. Bu jarayon ham jamiyat a'zolarining tub manfaatlarini ko'zda tutadi. Binobarin, har bir fuqoroni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash shu yurtning farzandlari uchun muqaddas burchdir.

Tarbiya nima? Agar “tarbiya” tushunchasining tub ma'nosiga e'tibor beradigan bo'lsak, bu - insonning o'zi va o'z xulqi haqidagi tasavvurining to'g'ri va xolis bo'lishini ta'minlovchi murakkab jarayondir.

Har bir davrning o'ziga xos tarbiyaviy usul va vositalari bo'ladi. Qadim zamonlardan tarbiya yosh avlodning keksa avlod tajribalarini o'zlashtirish shakllaridan biri sifatida qarab kelingan. Tarbiya asosan mehnat faoliyati (ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik va shu kabi) jarayonida turli urf-odatlar, marosimlar o'tkazish vaqtida amalga oshirilgan. U asosida jismonan baquvvat bo'lish yotadi.

Bola istagan soha bo'yicha ta'lim-tarbiya olib, o'zi xohlagan ixtisoslikni egallashga haqli. Lekin uning xohishi bilan jismoniy imkoniyati har doim ham bir-biriga mos kelavermaydi. Odatda, ota kasbini, to'g'rirog'i bobo meros kasbni tutgan yoshlar hayotda ko'proq muvaffaqiyat qozonishgan. Chunki bolada otaning qoni, uning layoqati bo'ladi. Demak, kasb tarbiyasi yoshlikdan el-yurtga foydasi tegadigan, mehnat faoliyatiga yo'naltirish ham mafkuraviy ahamiyatga egadir.

G'oyaviy tarbiyaning mohiyati

Shaxs tarbiyasining muhim yo'nalishi - bu g'oyaviy tarbiyadir. Bu - inson ongi va tushunchalari tizimida hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy qarashlarni maqsadli shakllantirish jarayonidir. Har

qanday tarbiya jarayoni oxir-oqibat, o'z maqsad va mohiyatiga ko'ra g'oyaviy tarbiyadir. Chunki, oilani olamizmi, bolalar bog'chasini, mahalla, maktab, kollej, litsey, universitet yoki akademiyani olamizmi - hammasida beriladigan ta'lim va tarbiya jarayonlari talaba, tinglovchilar dunyoqarashini kengaytirish, ularning ongini ilmiy asoslangan bilimlar bilan boyitish hamda jamiyat uchun kerak bo'lgan, uning ravnaqi uchun kerak bo'lgan sifatlarni kamol toptirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu tom ma'noda mafkuraviy tarbiyaning asosi, poydevoridir. Shuning uchun mafkurasiz inson bo'lishi mumkin emas.

G'oyaviy mafkuraning maqsadi

Har qanday mafkuraviy tarbiyaning maqsadi jamiyatning har bir a'zosi va ular timsolida har bir ijtimoiy qatlam, guruhning tarbiyaviy darajasini ta'minlashdir. Bu pirovard natijada o'sha jamiyat rivojida turtki beruvchi ilg'or g'oyalarning har bir fuqaro tomonidan ongli ravishda o'zlashtirishini, uning tafakkur va fikrlash tarziga aylantirilishini ta'minlaydi. Shu ma'noda, milliy istiqlol g'oyasi mafkurasi O'zbekistonda yashab, ijod qilayotgan har bir fuqaro ongi va shuurida asriy milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning bugungi va kelgusidagi manfaatlarini ifodalovchi eng sog'lom g'oyalar va fikrlar tarzida xalq tafakkuri tarzida o'z ifodasini topishi lozim. Bu jihat mafkuraviy tarbiyaning bosh xususiyatlaridan biridir. Mafkuraviy fidoilik eng avvalo yuksak e'tiqod, imon, vatan va xalq oldidagi ma'suliyat, vatanparvarlik, fidoilik kabi fazilatlarda namoyon bo'ladi.

Yoshlarni g'oyaviy tarbiyalash

Sog'lom g'oyalar tarbiyasi yuksak dunyoqarash va e'tiqod tarbiyasini anglatadi. Dunyoqarash tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim va tasavvur, g'oyalar majmui bo'lib, u shaxsni jamiyatda o'zligini saqlagan holda munosib o'rin egallashga chorlaydi.

Mustaqillik yillarida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda vatanga bo'lgan sadoqatni, milliy qadriyat va an'analarga muhabbatni, o'z yaqinlariga mehribonlikni, tanlagan yo'li, kasbi, maqsadi va e'tiqodiga sodiqlikni

nazarda tutadi. Yangicha fikrlash va yangicha tafakkur aynan mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiya topib, sayqal topgan milliy ong, dunyoqarash va e'tiqod mahsulidir.

Yoshlik, o'spirinlik davri dunyoqarashning shakllanishi, e'tiqodning mustahkamlanishi uchun o'ta muhim bosqich hisoblanadi.

Ma'suliyat

G'oyaviy tarbiya mezonlaridan biri - bu ma'suliyat tuyg'usi bilan yashash xususiyatini shakllantirishdir. Ma'suliyat har bir amaliy faoliyat mahsulini to'liq tasavvur qilgan holda, uning o'zi va o'zgalar uchun nima naf keltirilishini anglay olish qobiliyatidir. Ma'suliyatni his qilgan inson ishni doim puxta rivojlantirib, uning oqibatlarini oldindan tasavvur qila oladi va zarur natijaga erishish uchun butun kuchi va salohiyatini safarbar etishga qodir bo'ladi.

E'tiqod - psixologik va ijtimoiy-psixologik tushuncha bo'lib, odamning muayyan qarash, ta'limot, nazariya, hayotiy aqida, qadriyat yoki faoliyat tamoyillarini emotsional hissiy qabul qilish jarayonida shakllangan sobit fikr va tasavvurlar majmuidir. Yoki boshqacha aytganda, e'tiqod ma'lum qadriyatlar, diniy yoki dunyoviy maslaklar, munosabatlarning inson qalbida yashash falsafasi, faoliyat dasturi sifatida qabul qilinishidir. Agar shu jarayonning oqibati o'laroq odamda diniy yoki dunyoviy maslak, ishonch kabi turg'un munosabatlar shakllangan bo'lsa, biz uni e'tiqodli odam deb aytamiz. Insonning insonligi, uning jamiyatdagi o'rni va nufuzi ham ma'lum ma'noda uning e'tiqodi bilan belgilanadi. Ayrim insonlar butun umri mobaynida faqat bitta narsaga e'tiqod qiladi. Masalan, fransiyalik mashhur sayyoh Kusto va uning komandasi haqidagi filmni hamma ko'rgan. Bu kurashda u butun umrini dengiz hayoti va undagi sirli voqealar, hayvonot dunyosini kashf etishga bag'ishlangandek tuyuladi. Dengizdan juda uzoqda yashaydigan, undan manfaat ko'rmaydigan odamlar uchun bu tadqiqotchining hayoti va ishlari keraksiz bir narsadek tuyuladi.

“Imon” arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi ishonchdir. Haqiqiy e'tiqod egasi bo'lgan odamda imon ham bo'ladi. Buyuk me'rosimiz hisoblanmish

“Avesto”da imon va e’tiqodning o’zaro aloqasi va uning inson tafakkur tarzi bilan bog’liqligi xususida shunday deyilgan:

Aqlli va imonli kimsalarga
Bag’ishlayman shodlik, bardam ruh...
E’tiqodman, Mitraman,
Mudom saboq bermochiman,
Imon bilan fikr aylasin,
Imon bilan so’z so’zlasin.
Va imonga amal qilsin.

Imon keltirish yoki ishonch shunday psixologik holatki, unda shaxsning e’tiqodiga mos keladigan tasavvurlar majmui yetakchi o’rinni tutadi. Imonning nima ekani ko’pincha shaxs tomonidan chuqur tahlil qilinmaydi, tekshirilmaydi, chunki unda insoniyat tajribasi, shaxs e’tiqod qilgan ijtimoiy guruhning qarashlari mujassam bo’ladi. Shuning uchun ham xalq vatan xoinlarini eng avvalo “imonsizlar” deb la’natlaydi, zero, tug’ilib-o’sgan yerni muqaddas bilish, kindik qoni to’kilgan tuproqni sog’inish, Vatan ravnaqi yo’lida baholi-qudrat vijdon bilan mehnat qilish imonlilik belgisidir.

Sog’lom dunyoqarash, ma’suliyat, imon va e’tiqodni yoshlar ongida shakllantirishning quyidagi asosiy ob’yektiv shart-sharoitlari va omillarini ajratib ko’rsatish mumkin:

- a) ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy muhit;
- b) sog’lom g’oyalar;
- v) siyosiy ong va huquqiy madaniyatning o’sishi;
- g) yoshlarning bilim darajasi;
- d) odatiy, an’anviy fikrlash tarzidan yangicha ilg’or fikrlashga o’tish;

O’lkamizda oila tarbiyasi

Shaxs ma’naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e’tiqodiga aloqador ko’nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma’noda, oila - haqiqiy ma’naviyat o’chog’i, tarbiya omili va muhitidir. Binobarin, milliy

mafkuramizga xos ilk tushunchalar inson qalbi va ongiga, avvalo oila muhitiga singadi. Bu jarayon bobolar o'g'iti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi.

Bolalar yoshlikda xalq va yurt taqdiri uchun fidoiylilik tuyg'usini shakllantirish mafkuraviy tarbiyada muhim o'rin tutadi.

E'tiqodli odam avvalo foydali ish bilan shug'ullanadi, o'zgalarga ziyon keltiruvchi amallar qilmaydi, yolg'on gapirmaydi. U har doim lafziga amal qiladi, ya'ni bir narsani qilaman deb ahd qilsa, butun kuchi va iqtidorini safarbar qilib, uni albatta bajaradi, boshlagan ishini oxiriga yetkazadi. E'tiqodli inson nima qilayotganini, nima uchun aynan shu ishni qilayotganligini juda yaxshi biladi. Shu bois haqiqiy e'tiqod egasi ilmga intiladi, o'z oldiga aniq maqsad qo'yib yashaydi, har tomonlama barkamol bo'lishga tirishadi, yaxshilarga oshno bo'lish, buyuklikka havas uning hayotiy shioriga aylanadi. Haqiqiy e'tiqod sohibi o'zidan oilasiga, farzandlariga, insoniyatga nimadir qoldirishni istab yashaydi. Shuning uchun ham e'tiqod, hamma-hammasi ezgulikka, ya'ni sog'lom mafkuraviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Oilada ota-ona, qaynona-kelin, qarindosh-urug'lar o'rtasidagi munosabatlardagi samimiyat darajasi ham yoshlarda sog'lom fikrning, sharm-hayo, mehr-oqibat, iffat, ibo, nazokat, lafz, ma'suliyat kabi ijobiy fazilatlar va intellektual sifatlarning namoyon bo'lishiga zamin hozirlaydi. Xalqimizga xos ustuvor fazilatlar asosan oilaviy muhitda, yaqin qarindoshlarning bevosita aralashuvida yuz beradi. Bu hol mehnatga to'g'ri munosabat, halollik, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni e'zozlash, ayash, urf-odatlarni muqaddas bilish jarayonida amalga oshadi.

Bu urf-odat va an'analarning asosiy qismi oilada va oila a'zolarining bevosita ishtirokida o'tkaziladi. Shuning uchun ham bir oilaviy an'ana va udum mafkuraviy tarbiyaning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Masalan, insonparvarlik, yuksak e'tiqodli, bag'rikeng, mehr-oqibatli odamlarni voyaga yetkazishda keng ma'noda tolerantlik, oilaviy munosabatlardagi insoniylik tamoyillari muhim o'rin tutadi.

Har bir o'zbek oilasida muqaddas sanaladigan mehmonvozlik, qiz va o'g'il bolalar tarbiyasi borasida maxsus an'analarning mavjudligi, yil mavsumiga ko'ra barcha oila a'zolari ishtirokida o'tkaziladigan hasharlar, chaqaloqning dunyoga kelishi bilan bog'liq marosimlar shular jumlasidandir.

Asrlar mobaynida shakllangan, avloddan-avlodga bebaho meros sifatida o'tib kelayotgan urf-odat, marosim va bayramlar ham milliy mafkuraning asosiy g'oyalarini singdirishda muhim omil bo'ladi. Xususan, "Mustaqillik bayrami", Navro'z, o'qituvchilar va murabbiylar, Xotira va qadrlash kuni kabi bayram va marosimlarimizdan jamiyat hayotiga zamonaviy mazmun baxsh etish yo'lida oqilona foydalanish zarur.

Bugungi kunda milliy an'analарimizni yosh avlodga o'rgatish, targ'ib etish bilan bir qatorda to'y-ma'rakalarni, odat va udumlarni ixchamlashtirish, bu borada isrofgarchilik va dabdababozlikka yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor qaratish lozim.

Mahalla, avvalo, sog'lom ijtimoiy muhitdir, bu yerda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri, mahalla ahlining xulq-atvori, o'zaro munosabatlarni adolat va ma'naviy mezonlar asosida taratibga solib turadi. Shu ma'noda mahalla, Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, haqiqiy demokratiya darsxonasidir.

Mahallada keng jamoatchilik o'rtasida mafkuraviy ishlarni samarali yo'lga qo'yish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, el-yurt sha'ni uchun kurash kabi fazilatlarni kamol topishida mahallaning o'rni beqiyos.

Agar biror mahallada o'sgan qiz haqida boshqa biror odam noo'rin gap aytganini qizning mahalladoshi eshitib qolsa, shu qizning sha'ni uchun kurashadi, uni oqlashga, begona odamni esa tartibga chaqirib qo'yishga harakat qiladi. Shu ma'noda mahalla hamjihatlik, or-nomus, birodarlik kabi fazilatlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mafkuraviy tarbiyada onaning alohida o'rni va nufuzini hisobga olinib, xotin-qizlarning bola tarbiyasi va oilaviy ro'zg'or ishlarini yuritish borasidagi

bilimdonliklarni takomillashtirib borish, “onalar maktabi” tashkil etish ham katta amaliy ahamiyatga ega bo’ladi. Chunki, Prezidentimiz, hukumatimiz tomonidan ayollarga bildirilayotgan yuksak ishonchning zamirida bu mo’tabar zotlarga xos buyuk onalik mehr-muhabbatni, ularning mafkuraviy tarbiyaga qo’shajak kuch-g’ayrati, noyob iste’dodlarining e’tirofi yotadi. Jahon madaniyati va ma’naviyatiga katta hissa qo’shgan Muso Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom-Buxoriy, Ahmad Farg’oniy, Amir Temur, Ulug’bek, Alisher Navoiy, Burxoniddin Marg’inoniylarni dunyoga keltirgan, tarbiya bergan momolarimizning vorislari bo’lgan zamonaviy ayollar ham sog’lom fikrlovchi, O’zbekiston taraqqiyoti uchun butun bilim va imkoniyatlarini ayamaydigan yoshlarni tarbiyalab berishga shubha yo’q. Zero yurtboshimizning “Har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma’naviy barkamolligi ayollarga bo’lgan munosabat bilan belgilanadi” deb, ularning bugungi hayotimizdagi o’rniga katta ahamiyat berayotgani bejiz emas.

Xullas, ota-ona o’z bolasini axloqi va xuquqiy madaniyati uchun jamiyat oldida javobgarliklari bor. Ota-onalik burchiga e’tiborsiz qarash, fuqorolik ma’suliyatini his etmaslik muhim ijtimoiy burchni bajarmaslik bilan tengdir. Chunki, bolani dunyoga keltirishdan ko’ra, uni jamiyatga nafi tegadigan, sog’lom, e’tiqodli, solih farzand qilib tarbiyalash mushkulroqdir.

Mahalla tarbiyachi, o’zini-o’zi boshqarishning milliy modeli bo’lgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlar va an’analariga tayangan holda, ulkan tarbiyaviy vazifani bajaradi.

Keksalarning pand-nasihatlari, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi misolida odamlar ongiga ezgulik g’oyalari singdirib boriladi.

O’zbek oilasida bola ongida sog’lom g’oya va bilimlar shakllanishi jarayonida oilaning kattalari, bobolar, momolar, yaqin qarindosh-urug’lar ham bevosita ishtirok etadi. Azaliy udumga binoan, bola tarbiyasida ota-onadan ham ko’ra bobo va buvilarning ta’siri kuchliroq bo’ladi. Ular oiladagi ma’naviy muhitning boshqaruvchilari hisoblanadi. Bunday tarbiya an’anasi buyuk ajdodlarimiz taqdirida muhim o’rin tutgan. Masalan, Amir Temurning nevaralari

tarbiyasi bilan ularning onalari emas, ulug' buvilari, bibilari shug'ullangan. Xususan, Shohruh Mirzo, Muhammad Sulton Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Ulug'bek Mirzo singari temuriy shahzodalar Saroy mulk xonim qo'lida tarbiya topganlar.

Oila uning asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan muqaddas an'analari orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, imon, e'tiqod, mas'uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik, ilmga ishtiyoq va madaniyat ko'nikmalari shakllanadi. Zero, har bir fuqaro oilaning jamiyatdagi o'rnini va vazifasini, vatanning ostonadan boshlanishi tushunmasdan turib, o'zini mukammal inson deb his qila olmaydi.

Bolalarda yoshlikdan xalq va yurt taqdiri uchun foydali, fidoiylilik tuyg'usini shakllantirish mafkuraviy tarbiya muhim o'rin tutadi. Buning uchun bola hayotining dastlabki yillaridan boshlab, uni narsalar bilan tanishtirishning milliy an'analarimizga xos shakllarini qo'llash lozim. Bu jarayonda milliy turmush tarzimizga yot bo'lgan "jangari" o'yinchoqlar, multfilmlar, kinofilmlardan iborat o'yinchoqlarni imkoni boricha foydalanmaslik lozim. Sharqona odob va bashariyatning ezgu intilishlarini aks ettiruvchi o'yinlar, o'yinchoqlar, rasmlar, milliy ertaklar asosida yaratilgan multfilmlar bolalardagi ilk yoshlikdan mafkuraviy qarashlarning to'g'ri shakllanishida qo'l keladi. Masalan, bolalar o'rtasida mashhur bo'lgan "Zumrad va qimmat", "Yoriltosh", "Xo'ja Nasriddinning sarguzashtlari" kabi qator ertaklar orqali bolalarda yaxshilikka muhabbat, yomonlikka nafrat tuyg'ularini tarbiyalash, adolat tantanasiga ishonch hissini uyg'otish mumkin.

Yuqorida tilga olingan tarbiya shakllarini amalga oshirishning eng qulay yo'li avvalo ota-onalarning ma'naviy bilim saviyasini oshirish, ularda sog'lom tafakkur va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu esa ota-onaning farzand oldidagi burchini to'g'ri anglashni, insonning dunyoga kelishi va kamol topib rivojlanishiga oid qonuniyatlarni puxta bilishni, oilaviy munosabatlar doirasida milliy urf-odat va an'analarimizni eng nodirlarini turmushga singdirish orqali bolalarda milliy qadriyatlarga mehr-muhabbatni uyg'otishni ularni mustaqil fikrlaydigan kishilar qilib tarbiyalashni taqozo etadi. Binobarin, ota-onalik shunday

ma'suliyatli vazifaki, uning inson ham ma'naviy jihatdan, ham psixologik jihatdan tayyor bo'lishi kerak.

Kasbni puxta egallash va fidokorona mehnat qilish uchun ilm qanchalik zarur bo'lsa, fozil farzandlar tarbiyalash va ularni insonlarga nafi tegadigan darajada yetuk qilib tarbiyalash uchun ham bilim shunchalik muhimdir. Shuning uchun o'rta asrning ko'zga ko'rinadigan iste'dodli shoirlaridan biri Abdibek Sheroziy ota-onaga, ayniqsa, ayol kishiga ilimning zarurati to'g'risida shunday yozgan edi: "Ilm- ayol uchun nomus, iffat, izzat, ayollik qadrini tushunib yetish imkoni. Ilm ayol uchun ziynat. Bunday ayol hech bir ishda adashmaydi. Ilmsiz ayol esa bola tarbiyalashda turli xildagi xatolarga yo'l qo'yadi".

Fuqorolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish chinakam demokratik fuqarolik jamiyati qurishning muhim omili. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, shaxsning huquqiy ongi yuksak, bilimi yetarli bo'lishi, lekin o'z xalqi va vatani oldidagi burchi va ma'suliyatini teran anglamasligi mumkin. Shuning uchun ham fuqorolar, ayniqsa yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish mafkuraviy tarbiyaning muhim shartidir.

Huquqiy madaniyatga oid ommabop adabiyotlar madaniyatni shakllantirish omili bo'lib, ularga quyidagi adabiyotlar kiradi:

- huquqiy madaniyatga oid ommabop adabiyotlar;
- ta'lim muassasalarida huquqiy madaniyatga oid maxsus o'quv kurslari;
- ijtimoiy muloqotning huquqiy tamiyillari mavzuga oid tadbirlar;
- mustaqillikning inson manfaatlariga qaratilgan huquqiy asoslarini keng xalq ommasi asosida targ'ib etish va boshqalar.

Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma'noda, oila haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, tarbiya omili hamda muhitidir. Binobarin, milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar inson qalbi va ongiga, avvalo oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota iborati, ona mehri orqali amalga oshiriladi.

Bunday sifatlarni o'zlashtira olgan har bir o'g'il va qizda oilaparvarlik va yurtparvarlik xususiyatlari rivojlanishi muqarar. Lekin, oilaviy nizolar, ajralishlarning sabablari tahlil qilinganda, shu narsa ayon bo'lmoqdaki, oila a'zolari o'rtasidagi kelishmovchiliklar, o'zaro til topa olmaslik kabi holatlar nafaqat o'sha oila, balki qarindosh urug'lar o'rtasida xotirjamlikka ham raxna soladi.

Jamiyat ma'naviyati mamlakat barqarorligi va taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Biron-bir mamlakat o'z ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay va mustahkamlamay turib yuksak taraqqiyot darjasiga ko'tarila olmaydi.

Ma'naviyat insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, insonni ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuchdir. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish Vatanimiz taraqqiyotining ustuvor yo'nalishi, deb belgilandi.

Milliy-ma'naviy tiklanish xalqimizning tili, urf-odati, tarixi, e'tiqodi, g'ururi, faoliyatini tiklash demakdir. Bularning barchasi mustaqillik davrida amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, milliy-ma'naviy tiklanish – bu milliy o'zlikni anglashdir.

Milliy-ma'naviy tiklanish milliy birlikni va boshqa etnoslarning mavjudligini tushunib yetish, milliy qadriyatlarga sodiqlik, milliy manfaatlarini tushunib yetish, milliy taraqqiyotga intilish, millatga mansublik va vatanparvarlikda ko'rinadi. Xalqning, jonajon o'lkamizning, davlatimiz hududining dahlsizligi, haqqoniy tarixni tiklash, milliy o'zlikni anglash, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonidagi tutgan muhim o'rni.

2-§. Ma'naviy islohotlar qamrovining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati

«Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanini joriy qilinishi natijasida ma'naviy islohotlarning nazariy asoslari ishlab chiqildi.

Ma'naviy qadriyatlarmizni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, o'zligimizni chuqur-oq anglash, milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi tamoyillarini halqimizning qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizni soxtalashtirishga, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanishlarga yo'l qo'y o'lkamizda oila tarbiyasi. maslik kabi vazifalar muhim ma'naviy islohotlar qamroviga kiradi.

Ma'naviy yetuk inson

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mujassam bo'lgan shaxsga ma'naviy yetuk inson deyiladi. Komil inson deb ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzotga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy mukammallikni o'zida mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan olijanob g'oya sohibiga aytiladi. Bunday olijanob g'oya nafaqat alohida shaxsni, balki butun xalqni yuksak taraqqiyot sari yetaklaydi, ma'na-viyat va ma'rifat sohasida tengsiz yutuqlarga ilhom-lantiradi. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodni voyaga yetkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q. Bunday xalq va millat ta-nazzulga mahkum.

Komil insonda:

1. Milliy qadriyatlarga sodiqlik;
2. Begona, yod va zararli g'oyalar ta'siriga beril-maslik;
3. Umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlash;
4. Mafkuraviy immunitetga ega bo'lish;
5. Mustaqillikni mustahkamlashga o'z hissasini qo'shish;
6. Faqat ezgu g'oyalarga xizmat qilish;
7. Ma'naviy va jismoniy barkamollik;
8. Nafosatga, go'zallikka intilish va h.k. bo'lishi lozim.

Ma'rifat

«**Ma'rifat**» (ko'plikda maorif) so'zi arabcha bo'lib, «bilish», «tanish», «bilim» ma'nosini anglatadi, ya'ni u tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi tur-li-tuman bilimlar, ma'lumotlar majmuasini o'z ichiga oladi.

Ma'rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi.

Maorif tizimi – maktabgacha ta'lim-tarbiya muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus o'quv yurtlari, oliy o'quv yurtlari va h.k.

Madaniyat

«**Madaniyat**» so'zi arabcha «madina» (shahar) so'zidan kelib chiqqan.

Arablar kishilar hayotini ikki turga, ya'ni qishloq (sahroda) va shaharda yashovchilar turmushiga bo'lishgan.

Demak, madaniyat (madaniylik) shaharda o'troq yashab, shaharga xos turmush tarzida yashovchilarga nisbatan ishlatilgan.

Ushbu kunda esa madaniyat – bu jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy hayotda qo'lga kiritilgan yutuqlar majmuidir.

Madaniyat ikki turga, ya'ni moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'linadi.

Moddiy madaniyat – bu mehnat qurollari, turar joylar, kundalik turmush buyumlari, kiyim-kechak, transport, aloqa vositalari va h.k.

Ma'naviy madaniyat – bu axloq, ta'lim, tarbiya, huquq, falsafa, nafosat, fan, san'at, adabiyot, folklor, asotir, din va h.k.

«**Mentalitet**» lotin tilidan olinib, «aql», «idrok», «zehn», «fahm-farosat» ma'nosini anglatadi. Milliy mentalitet millatning tarixan shakllangan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, yashash va fikrlash tarzi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda kamolga yetgan qobiliyati va ruhiy quvvati. Bu tushuncha millatga xos an'analar, rasm-rusumlar, urf-odatlar va diniy e'tiqodni ham o'z ichiga oladi. O'z navbatida u muayyan millatga mansub kishining turmush tarzi, fikrlashi, dunyoqarashini ham bir qadar belgilaydi, gohida uni baholash uchun asos bo'ladi.

G'oya

Insoniyat tarixi – g'oyalar tarixidir.

G'oya – bu voqyelikni inson ongida aks etishi. Inson voqyelikni ongida chuqur anglab olib, uni yanada takomillashtirish uchun fikr-mulohazalar qiladi.

Demak, g'oya – voqyelikni inson ongida aks etishi, chuqur anglab olishi va shu voqyelikni yanada rivojlantirish uchun fikr paydo bo'lishini o'z ichiga oladi.

G'oya – inson tafakkurining mahsuli, milliy g'oya esa millat tafakkurining mahsulidir.

Milliy g'oya – inson va jamiyat hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuidir.

G'oya ikki xil – yaratuvchilik va buzg'unchilik bo'lishi mumkin.

Milliy istiqlol g'oyasining o'zagini tashkil etuvchi asosiy g'oyalar

Milliy istiqlol g'oyasining o'zagini tashkil etuvchi asosiy g'oyalarga quyidagilar kiradi:

1. Vatan ravnaqi.
2. Yurt tinchligi.
3. Xalq farovonligi.
4. Komil insonni tarbiyalash.
5. Ijtimoiy hamkorlik.
6. Millatlararo totuvlik.
7. Dinlararo bag'rikenglik (tolerantlik).

Mafkura

Mafkura (arab. fikrlar majmui) – bu muayyan bir ijtimoiy guruh yoki millatning tub manfaatlarini nazariy asoslovchi va himoya qiluvchi falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik (nafosat va go'zallik), badiiy qarashlarning butun bir tizimidir.

Mafkurasiz jamiyat, ijtimoiy guruh yoki millat bo'lishi mumkin emas.

Jamiyat ma'naviyati ichida turli mafkura bo'lishi mumkin.

Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasi

Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasi – bu Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish.

Milliy istiqlol mafkurasining ildizlari

Milliy istiqlol mafkurasining falsafiy, dunyoviy va diniy ildizlari mavjud.

Milliy istiqlol mafkurasining vazifa va maqsadlari

Milliy istiqlol mafkurasini xalqning e'tiqodini shakllantiradi.

Milliy istiqlol mafkurasining maqsadlariga quyidagilar kiradi:

1. Mamlakatning mustaqilligi, hududiy yaxlitligi, sarhadlar dahlsizligi.
2. Mamlakatda fuqarolararo va millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlik muhitini yaratish va ta'minlash.
3. Yurtning tinchligi, davlatning ma'naviy, harbiy, iqtisodiy, g'oyaviy, ekologik, informasion tahdidlardan muhofaza etilishi.
4. Jamiyatda qonunning ustuvorligi, adolat, demokratiya, erkinlik, o'z-o'zini boshqarish tamoyillarining amal qilishi.

Milliy istiqlol mafkurasining vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirish.
2. Milliy o'zligini anglash.
3. Ko'p millatli xalqimiz ongida «O'zbekiston yagona Vatan» to'yg'usini shakllantirish.
4. Erkin fikrlovchi, siyosiy faol insonni tarbiyalash.
5. Tarixiy xotiraga sadoqat.
6. Milliy tabiatimizga xos bunyodkor fazilatlarni rivojlantirish.
7. Milliy qadriyatlarni rivojlantirish, milliy iftixor va g'ururni tarbiyalash.

Milliy mafkuraning shakllanishida yuzaga chiqadigan manfaatlar

Milliy mafkuraning shakllanishida keng xalq ommasining manfaatlari yuzaga chiqishi kerak.

G'oyaviy bo'shliqning paydo bo'lishiga olib keluvchi sabablar

G'oyaviy bo'shliq deb muayyan sharoitda jamiyat, undagi toifa va qatlamlarning ongida sodir bo'ladigan g'oyasizlik, mafkuraviy vakuum holatiga aytiladi. Muayyan aqidalar, fikr va g'oyalar zamon tanqidiga uchraganda yoki yangi paydo bo'lgan ijtimoiy-siyosiy kuchlar tomonidan inkor etilgan hollarda jamiyatda g'oyaviy bo'shliq vujudga keladi. G'oyaviy bo'shliqning yuzaga kelishi chuqur ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-psixologik muammo va jarayonlar bilan

bog'liq. Odatda, yangi g'oyalar turlicha ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Ayrim guruhlar ularni juda tez qabul qiladi, ba'zi toifalarning avvalgi mafkuraviy aqidalardan yuz o'girishi va yangi g'oyalarni qabul qilishi esa qiyin kechadi.

G'oyaviy bo'shliqning paydo bo'lishiga olib keluvchi sabablar quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. G'oyaviy bo'shliq eski tuzumdan yangi tuzumga o'tish jarayonida oldin hukumronlik qilib kelgan mafkura o'tmishga aylanayotgan bir paytda, taraqqiyot talabla-riga mos ravishda uning o'rinini bosa oladigan ilg'or g'oyaviy tizimning hali shakllanmagan holatidir.

2. Jamiyatda vujudga kelayotgan yangi tuzumga da'vat etuvchi tarbiyaning yetarli emasligi, mafkuraviy jarayonlarning o'z holiga tashlab qo'yilganligi bo'lishi ham mumkin.

Eng achinarlisi shundaki – buning oqibatida e'tiqotsiz, diyonatisiz, maqsad–maslaksiz bolalar hayotda o'z o'rtoqlari qatori o'rnini topolmagan insonlarning paydo bo'lishidir.

Ta'lim muassasalari. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot strategiyasi, o'zbek xalqining buyuk davlat paydo etish borasidagi maqsad muddaolari, milliy istiqlool g'oyalarini yoshlar qalbi, ongiga singdirishining ustuvor yo'nalishlaridandir.

Istiqlool mafkurasini odomlar qalbi va ongiga singdirishda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta'lim–tarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi.

Ta'lim va tarbiya sohalarini milliy istiqlool g'oyalarini yoshlar qalbi va ongiga singdirishning ustuvor yo'nalishlaridandir.

Bundan quyidagi vazifalar ko'zda tutiladi:

- Ta'lim muassasalarida bolalar va talabalarning yoshiga mos ravishda milliy istiqlool mafkurasi singdirishda differensial pedagogik–psixologik dasturni yaratish;

- Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o'quvchi talabalar ongida milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish ishlarini uzluksiz tarzda olib borish;

- O'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarda milliy istiqlol mafkurasini g'oyalarini teran aks ettiradi;

- Maktab, latsiy, kollej, institut va universitetlarda mafkuraviy tarbiyani bugungi kun talabi darajasiga ko'tarish;

- Pedagogik kadrlarning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish;

Ta'lim – tarbiyaning har bir alohida bosqichi o'z navbatiga milliy g'oyalarni yoshlar qalbi va ongiga singdirishning o'ziga xos omillarini nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari. Bu o'rinda har bitta ota-onaning o'z farzandining maktabgacha tarbiyasi uning keyingi taraqqiyot davrida qanchalik ahamiyat kasb etsa, bu davr uzluksiz ta'lim va tarbiyaning muhim bosqichi ekanini anglab yetishiga erishish zarur. Bunda oilaning maktabgacha ta'lim muassasalari tizimiga izchil uyg'unlashuviga erishishning nazarda tutish kerak. Bu davrda barcha maktabgacha ta'lim–tarbiya muassasalari bolalardagi umumiy savotxonlik va maktabdagi ta'lim–tarbiyaga tayyorlash jarayonining muhim va zaruriy bosqichi sifatida qaralishi lozim.

Yosh avlod tarbiyasi komil insonni tarbiyalash tushunchalari bugun paydo bo'lgan emas. Bu tushunchalar Markaziy Osiyo xalqlarining muqaddas kitobi "Avesto"da ham muhim o'rin egallagan.

Xulosa

Mustaqillikka erishgach, yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash masalasiga juda katta ahamiyat qaratila boshlandi. Mustaqillikni mustahkamlash tabiiy ravishda kadrlar masalasida ya'ni siyosat yuritishni, bilimdon mutahassislar tayyorlashning yangi tizimini yaratishni taqozo etdi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda yangi o'quv dargohlarini ochilishiga, ularning mavqeini ko'tarilishiga katta e'tibor qaratila boshlandi. Natijada, mustaqil davlat, demokratik jamiyat qurishdagi eng to'g'ri qadamlar tashlana boshlandi.

Azaldan xalqimiz butun jahon ahli e'tiborini uzining boy va rangbarang madaniy-ma'naviy merosi, dunyoviy va diniy ilmlar bo'yicha teran tafakkuri bilan o'ziga tortgan. Ajdodlarimiz o'zlarining aqlu-zakovati, yaratgan bebaho asarlari bilan dunyoni lol qoldirishgan.

Ta'limning yangi modelidan ko'zlangan maqsad ham har tomonlama yetuk, barkamol va komil insonni tarbiyalashga qaratilgan. Bu ijobiy ishlarga yurtboshimizning bosh-qosh bo'lganliklari uchun erishilmoqda. O'z navbatida biz ham yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazishda o'z hissamizni qo'shmoqdamiz.

Oldimizda kelajagi buyuk davlat qurishdek murakkab va sharaflı vazifa turibdi. Ushbu ulug' maqsadga yetishishimizda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"dan o'rin olgan "O'zbek milliy modeli" katta ahamiyatga egadir. Prezidentimiz I.A.Karimovning bevosita rahbarligida ishlab chiqilgan milliy model o'zimizga xos va mosdir. Jamiyatimizni yangilash, erkin demokratik davlatni shakllantirish, tarraqqiyot va ravnaq yo'lidagi barcha sayi harakatlarimizni biz aynan mana shu tamoyil asosida tashkil etishimiz kerak.

Vatanimiz taqdiri uning kelajagi va ravnaqi bo'lgan bugungi yoshlar qo'lida. Shu munosabat bilan Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisning IX-sessiyasidagi so'zlagan nutqida: "Tarbiya sohasi islohoti bugungi eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi muammoga aylanmoqda" – deb ta'kidlagan edi. - Lo'nda qilib aytganda, bugungi kunda

oldimizga qo'yilgan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi, taqdiri - bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz.

Shu bilan birga, hammamiz yana bir haqiqatni anglab yetmoqdamiz. Faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashab mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallash uchun fidoiylilik bilan kurashishi mumkin”⁵

Shuning uchun, jamiyatimizga malakali kadrlarni yetkazib berish maqsadida Respublikamizning Vazirlar Mahkamasi tomonidan buyuk ma'naviyatimizni tiklash, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari asosida yuqori darajaga ko'tarishga katta ahamiyat berilmoqda. Masalan, maktab sohasida “Ta'lim to'g'risida”gi qonun qabul qilindi. 1996-97 o'quv yilidan boshlab maktablarning 1-sinflarida o'qish yangi alifbo asosida olib borilmoqda, litsey va kollejlar tashkil etilmoqda, yoshlarimiz chet ellarga borib o'qishmoqda, oliy o'quv yurtlariga test asosida o'qishga qabul qilinmoqda, “Mahalla”, “Kamolot”, “Sog'lom avlod uchun”, “Nuroniylar”, “Ulug'bek”, “Umid” jamg'armalarining ta'lim-tarbiya sohasidagi ezgu ishlarni, o'sib kelayotgan avlodni nafaqat aqlan, balki jismonan sog'lom va ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashga qo'shayotgan hissalarini beqiyosdir.

Yuqorida qayd qilinganlarning hammasi O'zbekistonda hozirgi zamon yoshlari ta'lim va tarbiyasiga katta e'tibor berilayotgani ushbu kun nuqtai nazaridan nihoyatda dolzarb masalalardan ekanligi ko'rinib turibdi.

Shuni alohida ta'kidlab dozimki, biz erkin demokratik jamiyat, ozod va obod Vatan qurayotgan ekanmiz, biz yosh pedagoglar ham O'zbekistonning shuhratini,

⁵ Karimov I. A. “Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori”. - Toshkent, 1997-yil, O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutqi, 6-bet

obro'sini bundan yuksak cho'qqilarga ko'tarishni o'zimizning asosiy burchimiz, deb bilamiz.

Prezidentimiz "Har qanday millatning ravnaqi, umumbashariyat tarixida tutgan o'rni, mavqeyi va shuhrati bevosita o'z farzandlarining aqliy va jismoniy yetukligiga bog'liq", – deb bejiz ta'kidlamaga.

Mustaqil O'zbekistonimizga mustaqil fikr yurituvchi, izlanuvchan, shijoatli, mard, olijanob, yuksak ma'naviyatli yoshlar kerak. O'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashda ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy meros, ma'daniy boyliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Yuragida vatanga muhabbat hissi jo'sh urgan barkamol avlod har bir mamlakatning kelajagini belgilaydigan buyuk kuchdir. Jamiyatda barkamol insonlar qancha ko'p bo'lsa, taraqqiyot imkoniyati ham shuncha ko'p bo'ladi va ayni vaqtda yurt osoyishtaligini ta'minlaydi. Ma'naviyat tushunchalari yoshlar ongiga qanchalik yuksak darajada singdirilsa, yosh avlodning barkamol bo'lib voyaga yetishishiga mustahkam zamin yaratilgan bo'ladi.

Takliflar:

1. Yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda ajdodlar merosidan iloji boricha ko'proq foydalanish.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini barkamol avlod qilib tarbiyalashda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"dan foydalanish asosida ko'nikma va malakalar shakllantirish.

3. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mard, dovyurak, natijada vatanparvar qilib shakllanishlari uchun milliy istiqlol g'oyasini yoshlarning ongiga singdirishning shakl va yo'nalishlaridan foydalanishni o'rgatish usullari bo'yicha qo'llanma va tavsiyalar ishlab chiqish.

4. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z Ona-Vataniga bo'lgan sadoqat tuyg'usi malakalarini shakllantirish usullari aniqlash.

5. Ona tili va o'qish darslarida Ona Vatanga sadoqat, ota-onaga hurmat, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat

ramzlarini bilish va ularga itoat qilish, mehnatsevarlik tuyg'ularini shakllantiruvchi amaliy vositalar, jumladan darslarda o'zbek xalq ijodini o'rganish yuzasidan mustaqil ishlarni tashkil etish, darsdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlardan foydalanish malakalarini mustahkamlashda qo'llaniladigan vositalar ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Prezident asarlari, davlat farmonlari va qonunlari

1. Karimov I. A. «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida». T.: «O'zbekiston», 2011-y.
2. Karimov I. A. «Ijobiy ishlarni oxiriga yetkazaylik». – T.: «O'zbekiston», 1994-yil, 28-bet.
3. Karimov I. A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». - T., «Sharq», 1998-yil, 37-b.
4. Karimov I. A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida».-T.: «O'zbekiston», 1990-yil.
5. Karimov I. A. «Buyuk kelajak sari». - T.: «O'zbekiston», 1992-y.
6. Karimov I. A. «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». -T., «Sharq», 1997-y.
7. Karimov I. A. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin». T.: «O'zbekiston», II tom,1996-y.
8. Karimov I. A. «Xalqimizning yo'li – mustaqillik, ozodlik va tub islohotlar yo'lidir». T.: «O'zbekiston», 1996-y.
9. Karimov I. A. «Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari». T.: «O'zbekiston», 1996-y.
10. Karimov I. A. «Yuksak ma'naviyat - jamiyat taraqqiyotining asosi». T.: «O'zbekiston», 1998-y.
11. Karimov I. A. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2008-y.
12. Karimov I. A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». - T., «O'zbekiston», 1997-yil, 137-b.
13. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: «O'zbekiston», 1992-y.
14. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», - T.: «O'zbekiston», 1997-y.
15. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, - T.: «O'zbekiston», 1997-y.
16. «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi. - T.: «O'zbekiston», 2014-y.
17. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. -T «Fan», 2008-y.

Asosiy adabiyotlar

1. Musurmonova O. “O’quvchilarni ma’naviy madaniyatni shakllantirish”. - T.: “Fan”, 1993.
2. Navoiy Alisher “Mahbub ul qulub”. - T., “G’.G’ulom nomidagi adabiyot va san’at”, 1983-yil, 11-det.
3. Ortiqov N. “Umuminsoniy qadriyatlar lug’ati”. T.: «O’qituvchi», 2005-y.
4. Otamurodov S. “Ma’naviyat asoslari”. - T., 2002-yil.
5. O’quvchi ma’naviyatini shakllantirish, - T.:“O’qituvchi”, 1999-y.
6. Raxmonov S. “Bolalarda madaniy ko’nikma va odatlarni tarbiyalash”, - T.:“O’qituvchi”, 1994-y.
7. Safo Ochil “Mustaqillik ma’naviyati- tarbiya asoslari”. - T. “O’qit”, 1995.
8. Sohibov A. “Prezident I.A.Karimov asarlarida ma’naviy-axloqiy tarbiya vorisligi muammosining yoritilishi”, Xalq ta’limi, 2-son, 2009-yil, T., 4-bet.
9. Sattor Mahmud. “O’zbek udumlari”. - T., “Fan”, 2005-yil.
10. Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish, - T.:“O’qituvchi”, 1999-y.
11. Tulinov J. “Qadriyatlar falsafasi”, - T., “O’zbekiston”, 1998, 335.
12. Temirova F., Nazarova S. “Jamiyat va qadriyatlar”. - T., “O’zbekiston”, 1992.
13. Xayrullayev M. M. “Farobiy” , - T.:“O’qituvchi”, 1991-y., 73-74 bb.
14. Yusuf Xos Hojib. “Qutadg’u bilig”. - T., “Yulduzcha”, 1990, 85-97.
15. Yo’ldoshev J. “O’zbekiston Respublikasi ta’lim taraqqiyot yo’lida”, Toshkent: “O’qituvchi”, 1991-yil.
16. Yo’ldoshev J. “Mustaqillikning beshinchi bahori”, “Boshlang’ich ta’lim” jurnali, 1996- yil, 5- son.
17. Shayxova X., Nazarov Q. “Umuminsoniy qadriyatlar va ma’naviy kamolot”. - T, “O’zbekiston”, 1992, 6-7, 43-44.
18. Boshlang’ich ta’lim, №2, 2008-y, 26-27- betlar.

Qo’shimcha adabiyotlar

1. Avloniy A. “Turkiy guliston yoxud axloq”, - T. “Me’ros”, 1993, 210 b.
2. Abu Ali ibn Sino hikmatlari, T.:“O’zbekiston”, 1998-y.

3. Ahmedov B., Aminov A. “Amir Temur o’g’itlari”.- T., “Navro’z” , 1992-y., 64-bet.
4. Beruniy Abu Rayhon. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, - T. “Me’ros”, 1992, 376 b.
5. Jabborov A. “Ajodlar tajribasi”. - T., 1996, 37-43.
6. Javliyev T. “An’analar - hayot sabog’i”. - T. “O’zbekiston”, 1992, 90.
7. Kaykovus “Qobusnoma”, - T. “Me’ros”, 1992, 176.

Darslik va o’quv qo’llanmalari

1. G’afforova T., Ye. Shodmonov, G. Eshturdiyeva. O’qish kitobi. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik, - T.: “Sharq”, 2013-y., 127 b.
2. G’afforova T., Sh. Nurullayeva, Z. Mirzahakimova. O’qish kitobi. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik, - T.: “Sharq”, 2012-y., 175 b.
3. G’afforova M. «Ona tili» darsligi, 1-sinf, T.: «O’qituvchi», 2003-y.
4. G’afforova M. «Ona tili» darsligi, 2-sinf, T.: «O’qituvchi», 2003 y.
5. G’afforova M. «Ona tili» darsligi, 3-sinf, T.: «O’qituvchi», 2003-y.
6. G’afforova M. «Ona tili» darsligi, 4-sinf, T.: «O’qituvchi», 2003-y.
7. Haydarov A. Umuminsoniy qadriyatlar. - T.: «O’qituvchi», 2004-y.
8. Matchonov S., A. Shojalilov, X. G’ulomova, Sh. Sariyev, Z. Dolimov. O’qish kitobi. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, - T.: “Yangiyo’l roligraf servis”, 2013-y., 238 b.
9. Mahkamov U. “Axloq-odob saboqlari”. - T “Fan”, 1994.
10. Tulinova Sh. “Milliy qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyati”. - T.: «O’qituvchi», 2003-y.
11. Umarova M., X. Hamroqulova, R. Tojiboyeva. O’qish kitobi. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, - T.: “Sharq”, 2012-y., 222 b.

O’quv-uslubiy adabiyotlar

1. O’zbek pedagogikasi antologiyasi, - T.: “O’qituvchi”, 1995-y.
2. Boshlang’ich ta’lim, 3-son, 2000- yil, 23- bet.
3. Boshlang’ich ta’lim, 1-son, 2003- yil, 17- bet.

4. Xalq ta'limi, 2004-y, 4-son, 12- bet.
5. Boshlang'ich ta'lim, 3-son, 2005- yil, 17-bet.
6. Boshlang'ich ta'lim, 5-son, 2006- yil, 32-bet.
7. «Xalq ta'limi» jurnali, 2-son, 2014-y., 34-b.
8. Boshlang'ich ta'lim 5- son, 2008-yil, 42 betlar.
9. Boshlang'ich ta'lim 3- son, 2010-yil, 37-bet.
10. Boshlang'ich ta'lim 4- son, 2013-yil, 17-bet/
11. Xalq ta'limi 2014-yil, 5- son, 29-b.
12. Boshlang'ich ta'lim 2014, 3- son, 55-b.

Elektron ta'lim resurslari va internet manbalari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.pedagog.uz
3. http: www.lib.psixology.narod.ru

Mundarija

Kiris.....	3
I bob. Yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning o’rni.....	12
1-§. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarini barkamol inson qilib tarbiyalashda pedagoglarning ushbu kundagi vazifalari.....	12
2-§. Boshlang’ich sinf o’quvchilarini “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida barkamol inson qilib tarbiyalashning asosiy maqsadi.....	14
II bob. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarini barkamol avlod qilib tarbiyalashning o’ziga xos muammolari.....	17
1-§. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarini barkamol avlod qilib tarbiyalashning ba’zi bir jihatlari.....	17
2-§. O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi qonuni.....	20
3-§. O’zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”.....	22
III bob. “O’zbek modeli”ning o’sib kelayotgan yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta’siri haqida.....	26
1-§. “O’zbek modeli”ning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati haqida.....	26
2-§. Uzluksiz ta’limni isloh qilish.....	30
IV bob. Yoshlar ongiga milliy istiqlol g’oyasini singdirishda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning roli.....	35
1-§. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida yoshlar ongiga milliy g’oyani singdirish yo’llari.....	35
2-§. Ma’naviy islohotlar qamrovining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati.....	44
Xulosa.....	51
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	55